

---

## HARBIY QISMDAGI TADBIRDA VATAN HIMOYACHILARI ULUG'LANDI



### **Harbiy qismdagi tadbirida Vatan himoyachilari ulug'landi**

14 yanvar - O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining 33 yilligi va Vatan himoyachilari kuniga bag'ishlab So'x tumanida joylashgan harbiy qismlarda ham bayram tadbirlari bo'lib o'tdi. 9208 harbiy qismda tashkil etilgan bayram tadbirida tuman hokimi Sayidbahrom Sayidmusayev, tuman hokimi o'rinbosarlari, tuman sektor rahbarlari va boshqa jamoatchilik vakillari ishtirok etishdi. Tadbir avvalida Vatan madhiyasi yangradi va shundan so'ng tuman hokimi boshchiligidagi guruh Xotira monumenti poyiga gulchanbar qo'yishdi.

Tadbirida tuman hokimi so'z olib, barcha harbiy xizmatchilarni bayram bilan tabrikladi. - Ushbu harbiy qism askar va zobitlari zimmasiga katta mas'uliyat yuklatilganligiga qaramasdan harbiy qism nufuzini ko'tarishda harbiy xizmatni kasb deb bilgan ofitserlar, serjantlar va askarlarimiz bugungi kunga kelib o'zining harbiy intizomi, jangovar va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgalikdan yaxshi va a'lo ko'rsatgichlari bilan harbiy qismni yuksak cho'qqilarga erishish uchun o'z xizmatlarini ayamay kelmoqdalar, - deya ta'kidladi tuman hokimi o'z so'zida.

Tadbir davomida xizmat davomida o'rnak ko'rsatgan bir guruh askar va zobitalr, serjant va ofitserlarga esdalik sovg'alar topshirildi. Harbiy qismga tuman hokimligi tomonidan qimmatbaho sovg'a - yangi rusumdagi televizor taqdim etildi.









---

**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2025-01-14 18:08:17